

SHASHMAQOM CHOLG'U BO'LIMI

A'zamov Hazratoli Otaxon o'g'li

Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati o'qituvchisi

Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadimdan mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan.

Maqomlarning nazariy va amaliy tomonlari xam bor. Ularning nazariy jixatlari Sharq musiqasiga bag'ishlangan risolalarida o'z ifodasini topgan. O'zbek – Tojik xalqlaridagi maqomlarning amaliy tomonlari esa, ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og'zaki o'tib, bizgacha yetib kelgan maqomlar turkumidagi bir janr – Shashmaqom ko'rinishida bilishimiz mumkin. Shashmaqom ikki yuz ellikka yaqin kuy va ashulalarni o'z ichiga oladi. Shashmaqom fors va arabcha so'zlarning birikmasi bo'lib, „ Olti maqom” demakdir. Shashmaqom tarkibidagi Buzruk, Rost, Navo, Dugox, Segox va Iroq maqomlarining xar biri yirik shakildagi turkumli asarlar bo'lib, 20 tadan 45 tagacha katta va kichik xajimdagi maqom yo'llarini o'z ichiga oladi.

Maqomlarning xar biri „Mushkilot” nomli cholg'u va „Nasr” nomli ashula bo'limlaridan iborat. Maqomlarning Mushkilot (cholg'u) bo'limida bir xil nom bilan ataluvchi kuy yo'llari – Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas, Saqillardan iborat bo'lib, xar bir maqomning o'ziga mansub bo'lgan qismlari xam bor.

Maqomlarning Nasr (ashula) bo'limlarini xam ikki qismga (guruxga) ajratib o'rganamiz. Maqomlar ashula bo'limidagi birinchi qismga kirgan sho'balar guruxi – Saraxbor, Talqin, Nasrlar va ularning Ufarlaridir. Saraxbor, Nasr va Talqinlar o'zidan keyin ijro etiladigan taronalari xam bor. Ashula bo'limining ikkinchi qismiga kirgan sho'balar guruxiga – Savt, Mo'g'ulchalar va turli maqomlarning o'ziga xos bo'lgan ba'zi ashula yo'llari kiradi.

1920 yili Buxoroda "Sharq musiqa maktabi" va 1928 yili Samarqanda "Inmuzxoruz" instituti Shashmaqom an'analari o'zlashtirilgan. Ilk bor Shashmaqom 1923 yili rus kompozitori Viktor Uspenskiy tomonidan buxorolik maqomdon-ustozlar bo'lmish Ota Jalol Nosirov, Ota Giyos Abdug'anilardan yozib olingan va 1924 yili "Olti musiqali poema. Shashmaqom" nomi bilan nashr etilgan. Keyinchalik Shashmaqom B.Fayzullayev, F.Shaxobov va SH.Soxibov (Shashmaqom, 5 tomlik. Moskva, 1950-1961), Yunus Rajabiy (Buxoro maqomlari, Toshkent, 1959; Shashmaqom, 6 tomlik. Toshkent, 1966-1975; O'zbek maqomlari. Shashmaqom. Toshkent: YUNESKO, 2007), A.Boboxonov (Shashmaqom. Berlin, 2010) yozuvlarida nashr etildi.

XX asrdan boshlab Shashmaqom yozib olindi, ilmiy o'rganildi, yangi musiqa ta'limi orqali va kompozitorlik ijodida o'zlashtirilmogda. 1959 yili Yunus Rajabiy tashabbusi bilan O'zbekiston radiosi qoshida birinchi professional maqom ansambli tashkil etilib, xozirgi kungacha faoliyat ko'rsatmogda. O'zbekistonda professional va xavaskor maqom ansambllari maqomchilik san'ati targ'ibotiga katta xissa qo'shmogda. 1975 yildan xavaskor maqom jamoalari va 1983 yildan boshlab maqom ijrochilari va maqom ansambllari tanlovlari bo'lib o'tmogda. Shashmaqom namoyandalari va targ'ibotchilari – Ota Jalol Nosirov, Ota Giyos Abdug'ani, Levi Boboxonov, Domla Xalim Ibodov, Yunus Rajabiy, Berta Davidova, Turgun Alimatov, Faxriddin Sodiqov, O'lmas Rasulov va b., xamda Y.Rajabiy nomidagi maqom ansambli, Buxoro filarmoniyasi maqom ansamblidir. Shashmaqomni muxofaza qilishda ilmiy-ijodiy va amaliy ishlar qilinmogda: ilmiy tadqiqotlar, nashrlar, ilmiy ekspedisiyalar, filmlar, audio va video yozuvlar, radio va TV ko'rsatuvlari, maqom kechalari, "Nazm va Navo"

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

konsertlari, ilmiy anjumanlar (Toshkent, 1975, 2014; Samarqand, 1978-1987, 2001-2007; Buxoro, 2013; Berlin, 2011-2013), yetuk ijrochilarning "ustoz-sinf" (master-klass) va b. Mustaqillik yillari muntazam ravishda Xalqaro va respublika miqyosida yosh maqom ijrochilari tanlovlari o'tkazilmoqda. Shashmaqom ijro an'analari konservatoriya, san'at va madaniyat instituti, pedagogik universitetlari; san'at kollejlari va akademik litseylari xamda musiqa maktablari o'quv jarayoniga kiritilgan va talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilmoqda.

2003 yili "Shashmaqom musiqasi" YUNESKO tomonidan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb tan olindi va 2008 yildan boshlab YUNESKOning Rerezentativ ro'yxatiga kiritildi (O'zbekiston-Tojikiston).

Maqomlar to'la va yaxlit xolda ijro etiladigon bo'lsa, dastlab ularning cholg'u yo'llari birin-ketin ijro etilib, so'ngra ashula bo'limi sho'balariga o'tiladi. Maqomlarning cholg'u bo'limida bir xil nom bilan ataluvchi kuy yo'llari – Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas, Saqillardan tashqari xar bir maqoming o'ziga mansub bo'lgan qismlari mavjud.

Cholg'u bo'limidagi kuy yo'llarining xar biri mustaqil cholg'u qismlari xisoblanadi va o'zaro mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan qo'shib aytiladi. Masalan, Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Saqili Navo, Samoi Dugox, Muxammasi Iroq, Garduni Segox va xokazo. Shashmaqomning bu cholg'u yo'llari kuy tuzilishi jixatidan ajralib turadi. Xar bir maqomning kuy va ashula yo'llari faqatgina o'sha maqomlar lad asosi, badiiy estetik tas'siri bilangina cheklanmaydi, balki turli qismlarda ular o'z xususiyati bilan o'zaro boyib boradi.

Xar bir maqomdagi cholg'u yo'llari kishida xushchaqchaqlik, g'amginlik yoki jasoratbaxsh kayfiyatlar qo'zg'ata oladi. Aytib o'tilganidek kuy mavzulari boshqa-boshqa bo'lsa-da, doyra usuli bir xil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Usullar maqomlarning tuzilishi xarakterini belgilovchi omillardandir. Shashmaqom cholg'u yo'llarini yana bir o'ziga xosligi shundaki, ular asosan „Xona” va Bozgo'y deb ataluvchi kuy bo'laklaridan iborat.

Xona uy, xona ma'nosida, ya'ni „kuyni tashkil etgan tovushlar va uning boshqa unsurlar joylashtirilgan xona ma'nosini bildiradi. Shashmaqomning cholg'u yo'llarida xona kuylarning o'zgaruvchan bo'lagi bo'lib, uning jumalari vositasi bilan kuy o'z xarakati doirasida yuqoriga, avjiga tomon rivojlana boradi va asta – sekin o'zining boshlang'ich nuqtasiga qaytadi xamda kuyning mazmunini boyitishda va tugal fikr ifoda etishda xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xona iborasi o'tmishda umuman kuy va ashula bo'laklarini ifodalovchi musiqa iborasi sifatida qo'llanilar edi. Chunki o'zbek – tojik xalqlarining bizgacha yetib kelgan ashula yo'llarida xam „xona” va „bozgo'y”larda tuzilgan ashula yo'llarining yuzlab namunalari uchraydi. Shunday qilib, xonalar umuman kuylar va ashulalarning qismlari, deb qaralishi mumkin.

Bozgo'y (kuyning qaytarma bo'lagi) esa, kuyning takrorlanadigan qismi bo'lib, xonaning xar bir aylanishidan so'ng qaytariladi. Ba'zi bozgo'ylar xar bir xonadan keyin emas, balki ularning bir nechasidan so'ng yoki birinchi xonadan oldin xam kelishi mumkin (masalan, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugox va boshqalar). Xona va bozgo'ylar maqom cholg'u yo'llarini tashkil etadigan kuy bo'laklaridir va yana ularning rivojlanishida xam muxim o'rin tutadi. Maqomlarning cholg'u yo'llarini tinglar ekanmiz, ko'pincha ularning xonalari ijro etilgandan so'ng nimadir yetishmayotgandek, melodik epizod tugallanmay qolgandek tuyuladi.

Bozgo'y bu yerda kuyning asosiy o'zgarmaydigan qismi bo'lsa-da, xonani to'ldiruvchi, uni tugallovchi vazifani bajaradi. Cholg'u kuylarida shunday xona va bozgo'ylarni ajratib olish qiyin emas. Xona va bozgo'ylar maqomlarning cholg'u yo'llarida bir nechtdan bo'lishi

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

mumkin. Masalan, Navo maqomining cholgʻu boʻlimidagi Muxammasi Xusayniy uch xona va uch bozgoʻydan iborat boʻlgan xolda Tasnifi Navo oʻn yeti xona va uch bozgoʻydan iborat.

Maqomlarning cholgʻu yoʻllarining doyra usullari xam turli - tuman va juda murakkabdir. Cholgʻu yoʻllari koʻpincha shu doira usullari nomi bilan xam ataladi. Garduni, Muxammas, Saqil, Samoilar shular jumlasidandir. Musiqachi bastakorlar oʻtmishda doira usullarini ifodalashda maʼlum qoidaga asoslangan ritmlar uslubini ixtiro etganlar.

X – XVII asr musiqa risolalarida shu qoidaga asoslangan doira usullarining namunalari koʻplab keltirilgan. Bunda, asosan, uzun va qisqa boʻgʻinlarning ifodasi boʻlgan undosh xarflardan boʻgʻinlar tuzulib, boʻgʻinlar birikmasi esa sheʼr oʻlchovlari va doira usullarining ruknlarini tashkil etadi.

Doira usullarida ishlatiladigan bu ruknlar aruzdagi vaznlarni xam ifodalay olgan. Oʻtmishda sozanda va xonandalar aruz qoidalarini bilmagan xolda „tan-tana-tananan“ kabi ritm turoqlari vositasi bilan ashula yoʻllariga mos keladigan sheʼrlarni xam tanlab olganlar.

Maʼlumki, maqom yoʻllarining eng zarur unsurlaridan biri doyra usullaridir. Doira usullari maqom, cholgʻu va ashula yoʻllarini xarakterli tomonlarini ochib berishda xal qiluvchi omillardan xisoblanadi. Maqomlarning tarkibida boʻlgan anchagina kuy va ashulalar variatsiya yoʻli bilan ishlangan. Bunda esa doira usullari muxim roʻl oʻynaydi.

Shashmaqomning cholgʻu yoʻllari xar bir maqomda turlicha sonni tashkil etib, oltitadan oʻntagachadir. Maqomlarda bir xil nom bilan ataluvchi cholgʻu qismlari mavjud. Binobarin, xar bir maqomning boshqacha nomlanadigan yoʻllari xam bor. Dastlab, xar bir maqomda mavjud boʻlgan bir xil nom bilan ifodalanuvchi cholgʻu yoʻllari bilan qisqacha tanishib chiqamiz

Tasnif – arabcha soʻz boʻlib, „yaratilgan asar“, kuy demakdir. Bu yerda maqomlarning cholgʻu boʻlimidagi bosh asar maʼnosi xam bor. Maqomlarning cholgʻu boʻlimlari Tasnif kuy yoʻllari bilan boshlanadi. Ularning tasniflanishi- Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugox, Tasnifi Segox, Tasnifi Iroq nomlari bilan ataladi. Tasniflarning takt–ritm oʻlchovi 2/4, oʻrniga qarab 4/4 boʻlib, ular maqomlardan kuy xarakati jarayonida oʻzgarmaydi. Tasniflarning doyra usullari, asosan bir xil boʻlsa-da, baʼzan kuy xarakteriga qarab qisqaroq shaklda xam kelishi mumkin;

Buzruk, Navo maqomlarining Tasniflaridan doira usuli asosan 4/4 yoki 2/4 taktli boʻlib, nota yozuvida quyidagicha ifodalanadi;

Tasniflar maqomlarning xar birida mustaqil mustaqil musiqa mavzulariga ega boʻlib, kuy yoʻllari bir-biridan tubdan farq qiladi. Ularning kuy boʻlaklari, xona va bozgoʻylari tarkibi xam turlichadir.

Tasnifi Buzrug – 8 xona va 8 bozgoʻydan,

Tasnifi Rost – 7 xona va 8 bozgoʻydan,

Tasnifi Navo – 17 xona va 3 bozgoʻydan,

Tasnifi Dugoh – 7 xona va 8 bozgoʻydan,

Tasnifi Segoh – 4 xona va 4 bozgoʻydan,

Tasnifi Iroq – 8 xona va 9 bozgoʻydan iborat.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

Umuman cholg' u bo' limidagi kuy yo' llarini tashkil etgan xonalar avjga tomon xarakat etar ekan, ular diapazon kengayishi bilan birga mazmunan chuqurlashib va aniqlashib boradi.

Shunday qilib, Tasniflar maqomlarning yirik shakildagi cholg' u yo' llari bo' lib ular keng diapazonga ega, ba' zan esa ikki oktavadan xam ortiqroqdir.

Tasniflar Buzrug maqomida 212,

Rostda 338,

Navoda 114,

Dugoxda 150,

Segox 125,

Iroqda esa 326 taktdan iboratdir. Bu narsa Tasnif yo' llari xajmining ancha katta ekanidan dalolat beradi. Shashmaqomda Tasniflarning umumiy soni beshtani tashkil etadi.

Tarje' – arabcha so' z bo' lib, qaytarish, takrorlash ma' nosida keladi. Kuy ifodasi sifatida bir kichik motivning turli balandliklarda

takrorlanishi, ularning transpozisiya etilgan shakilda va ritmik

xamda melodik variyasiyalar shaklida kelishi demakdir.

Maqomlarning cholg' u yo' llaridagi kuy bo' laklari bo' lgan shunday peshravlar Navo maqomidagi Tarje' ning uchinchi xonasida xam uchraydi. Tarjei Dugoh esa Tasnifi Dugohning ruxiga yaqin bo' lsa-da, uning tarkibida boshqa maqom yo' llarida mavjud bo' lgan unsurlar juda ko' p uchraydi va yuqorida aytilgan peshrav motivlari III xonada uchraydi.

Tarjei Dugoxning bozgo' yi boshqa xonalar bilan birgalikda Tasnifi Dugoxni eslatadi. Tarjei Segox doira usuli, kuy xarakati, xonalar tarkibidagi kuy jummalari nuqtai nazardan Tasnifi Buzrukning ma' lum bir melodi variyasiyasidir. Qisqacha qilib aytganda, maqomlarning cholg' u bo' limidagi Tarje' yo' llarida kuy oxangi nuqtai nazardan ba' zi umumiyliklar mavjud. Shashmaqomda Tarje' larning soni beshtani tashkil etib barchasi muxim axmayatga ega.

Gardun – osmon gardishi, aylana, taqdir ma' nolarida keladi. Musiqa istilosida esa, Gardun – ma' lum bir doira usulining xamda shu usul jo' rligidagi muayyan lad (maqom) ga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuy yoki ashulaning nomidir. O' tmishda, XIII-XVII asrlarda yozilgan musiqa risolalarida Garduniya yoki Gardoniya nomlari bilan atalgan maqom sho' balari xaqida gapiriladi. Ularning bizgacha yetib kelgan shakli Shashmaqomdagi Gardun yo' llari xisoblanadi. Dardunning takt-ritm o' lchovi juda murakkab $8/4$ ($2/4 + 3/4 + 3/4$) doira usuli esa quydagichadir;

Gardun cholg' u yo' llari Iroqdan boshqa xamma maqomlarda mavjud bo' lib, ular Garduni Buzruk, Garduni Rost, Garduni Navo, Garduni Dugoh, Garduni Segox nomlari bilan mashxurdir. Gardun yo' llari unchalik katta xajmda bo' lmasa-da, kuy tuzilishi va xarakteri jixatidan Tasnif yoki Tarje' lardan ko' ra ancha murakkabroqdir.

Gardun yo' llarida bozgo' y xamma xonalardan keyin kelavermaydi, balki ko' pincha ikki- uch xonalardan so' ng takrorlanadi. Kuyning yo' nalishida esa katta intervallardagi oxang aylanmalari juda tez uchrab turadi. Bunda tersiya, kvarta darajasida baland yoki pastga sakrashlar, kvinta, oktava xatto undan xam yuqoriga to' satdan ko' tarishlar xam uchraydi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

Bunday xollar maqomlarning boshqa cholgʻu yoʻllarida uchrasa xam, ular Gardun yoʻllari uchun juda xarakterlidir.

Gardun ijro yoʻllari ijro etilganda yuksak kasbiy musiqa asari ekanligin sezishimiz mumkin. Shashmaqomda jami beshta gardun mavjud.

Muxammas – beshlangan, beshlik maʼnosida boʻlib, bu nom juda qadim zamonlardan maʼlumdir. Dastlab, bu ibora bilan doira usulining bir turi, sheʼriyatda esa besh misrada tuziladigan sheʼr shakli ifodalangan.

Muxammaslarning takt-ritmi oʻlchovi 2/4 yoki 4/4 boʻlib, doira usuli esa xaddan tashqari uzun, yaʼni 2/4 boʻlganida 16 takt, 4/4 boʻlganida 8 taktni tashkil etadi;

Muxammas cholgʻu yoʻllari eng xarakterli narsa shuki, ularda xona va bozgoʻylar doira usuli xajmidagi bir xil oʻlchovda, 16 (yoki 8) takitdan iborat boʻladi, yaʼni Muxammas doira usuli xar bir xona va bozgoʻy xajmini belgilab beradi. Baʼzan oʻz xarakatida avjga yetganda, bozgoʻyga qaytib tushishi uchun bir xona kifoya etmay qoladi. Shuning uchun koʻpincha avjda ikki-uch xona ketma-ket ijro etilib, soʻngra bozgoʻya yetib kelinadi. Muxammaslarda bir-birga oʻshash unsurlar koʻp uchraydi. Bunda u yoki bu kuy boʻlagi turli maqomlarning ruxiga moslashtirib olinadi. Xuddi shu muxammasning maʼlum unsurlari va variantlari Muxammasi Rostda, Muxammasi Buzrukning II xonasida, Muxammasi Nasrulloiy xonalarida, Muxammasi Bayotda, Muxammasi Xusayniy, Muxammasi Dugoxda, Muxammasi Xojixoʻjada, Muxammasi Iroqda (II, IV xonalar) uchraydi.

Shashmaqomda jami oʻn oltita muxammaslar bor. Muxammaslar oʻsha maqom nomlari bilan atalibgina qolmay, baʼzi muxammaslar oʻz mualliflari nomlari bilan qoʻshib ataladi. Nasrulloiy, Xusayniy, Xojixoʻja, Mirza Xakim kabilar maʼlum kuylarni Muxammas usuliga tushurib, bastalagan ijodkor-sozandalar ismlaridir.

Saqil – arabcha, „ogʻir, vazming, choʻzilgan“ demakdir. Musiqa istilosida esa vazmin surʼatda ijro etilib kelingan murakkab doyra usulining nomidir. Saqillarga xos kuy xususiyati, ijro etish uslubi Shashmaqomda tasodifiy qabul etilmagan boʻlsa kerak. Chunki maqomlarda Saqillardan soʻng, ularning ashula boʻlimiga oʻtiladi. Ashula boʻlimi esa vazminroq ijro etilib kelingan Saraxborlar bilan boshlanadi. Saqil oʻzining doira usuli xususiyati bilan Saraxborlarga oson ulanib ketadi va oʻrtada usul surʼati jixatidan xam kuchli burilish sodir boʻlmaydi.

Eski musiqa risolalarida saqil usuli turli koʻrinishda keltiriladi. Shashmaqomda esa Saqillar takt-ritm oʻlchovi 2/4 baʼzan 4/4 boʻlib, doira usuli esa Muxammaslarga koʻra yanada uzunroqdir, yaʼni yigirma toʻrt takt yoki 4/4 boʻlganida oʻn ikki takitni tashkil qiladi;

Xulosa:

Shashmaqomning cholgʻu boʻlimida bir xil nomli qismlari, asosan shulardan iboratdir. Bulardan tashqari, baʼzi maqomlarning oʻzigagina xos boʻlgan boshqa nomlar bilan ataladigan cholgʻu yoʻllari xam bor. Ular Navo maqomida Nagʻmai Oraz, Dugoxda Peshravi Dugox, Samoyi Dugox, Segoxda Hafifi Segox nomlari bilan ataladi.

Nagʻmai Oraz asosan, Tarjeʼ Navoga asoslangan boʻlib, uning maʼlum melodik shaklidir. Xatto uning doira usuli xam Nagʻmai Orazda saqlangan. Nagʻmai Oraz, Navo maqomidagi boshqa cholgʻu qismlari kabi surnay yoʻllari sifatida xam mashxur boʻlgan.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

Peshravi Dugox Tarje' usulida bo'lib, bunda xona va bozgo'ylarning xar biri soni teng sakkiztadan iborat. Bu cholg'u yo'li Peshravning bizgacha yetib kelgan eng xarakterli ko'rinishidir. Bunda xonalar va bozgo'y yo'nalishi yuqoriga xarakat etadi.

Samoyi Dugoxning tuzilishi xam peshravga yaqindir. Uning doira usuli sakkiz taktli bo'lib, bozgo'y xonalar xajmiga teng;

Shashmaqomda beshinchi usul bu „Samoi usul“, ya'ni Samoyi Dugox usuli xisoblanadi. Samoyi dugox musiqa cholg'ularida va surnayda maqom turkumlaridan ajratilgan xolda juda ko'p ijro etilib kelingan mashxur kuylardandir. Uning Ufar usulidagi varianti xam ko'plab ijro etiladi.

Xafifi Segoxning xam takt-ritm o'lchovi, doira usuli Tarje'lardagidek, Samoyi Dugoxga o'xshash xona va bozgo'ylar xajmiga teng (sakiz takitdan).

Xafif – yengil degan ma'noni anglatib, doira usuli va aruz vaznida ma'lum turoq o'lchovining ifodasidir. Demak, Xafifi Segox shu nomli doyra usulidagi kuy yo'llaridandir.

Shashmaqomning Mushkilot bo'limida jami 46 ta kuy mavjud. Umuman Shashmaqomning cholg'u yo'llari o'ziga xos oxangdorlik ta'sir kuchiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Odilov. "O'zbek xalq cholgularida ijrochilik tarixi". T., "O'qituvchi", 1995.
2. I.A.Karimov. //Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch//. "Ma'naviyat" nashriyoti T-t., 2008 y
3. Ibrohimov O.A.//O'zbek xalq musiqa ijodi//metodik tavsiyalar) 1-qism, Toshkent—1994yi.
4. 5. A. Tashanov. // Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar// (ma'naviyatga tahdid soluvchi illatlar). Toshkent 2015.
6. S.Q. Yo'ldashev. //Musiqqa tarbiyasi va ta'limning rivojlanishi//. T., 1995 y
7. D. Soipova. //Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish//. T-t , 2005 y